



## QAMASHI SUV OMBORINING QURILISHI TARIXI

**Raximov Asror Eshonqulovich**

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston  
Milliy universiteti mustaqil tadqiqotchisi

**Annotatsiya:** Sovet hukumati tomonidan XX asrning 50-yillarida Qashqadaryo vohasida buniyod etilgan irrigatsiya inshootlaridan biri Qamashi suv omborining qurilish tarixi haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** Qamashi, Chimqo‘rg‘on, suv, cho‘l, loyiha, kanal, suv ombori, irrigatsiya.

**Аннотация:** Рассказывается об одном из ирригационных сооружений, построенном советским правительством в Каракалпакской оазисе в 50-х годах 20 века, об истории строительства Камашинского водохранилища.

**Ключевой слова:** Ключевые слова: Камаши, Чимкурган, вода, пустыня, проект, канал, водохранилище, орошение.

**Annotation:** It tells about the history of the construction of the Kamashi reservoir, one of the irrigation structures built by the Soviet government in the Kashkadarya oasis in the 50s of the 20th century.

**Key words:** Kamashi, Chimkurgan, water, desert, project, canal, reservoir, irrigation.

Qashqadaryo viloyatidagi Qamashi suv ombori viloyatdagi yagona tuman nomi bilan ataluvchi suv ombor hisoblanadi[1]. Qamashi suv ombori kichik hajmdagi suv omborlari turiga kirsada, uning tuman xo‘jaliklaridagi ekin maydonlarini sug‘orishini sovet hokimiyyati ahamiyatli deb bilgan.

Masalan, Qamashi suv ombori qurilishining loyihasi dastlab 1943 yilda “Узгипроводхлопком” tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, 1943 yil 14 dekabrda O‘zbekiston SSR Narkomvodxoz (Xalq suv xo‘jaligi) tomonidan tasdiqlangan[2]. Ammo, loyihami amalga oshirishga Ikkinchiji jahon urushi halaqit bergen bo‘lsa kerak, loyiha urushdan so‘ng O‘zbekiston SSR Suv xo‘jaligi vazirligining 1950 yil 19 oktabrdagi 163-sonli farmoyishi[3] bilan suv ombor qurilishining dastlabki loyihasi mutaxassislar tomonidan qayta ko‘rib chiqilishi lozimligi qayd etilgan.

1951 yil Qamashi suv omborining qayta ishlangan texnik loyihasi Suv xo‘jaligi vazirligining kengashi tomonidan ko‘rib chiqilib, bir qator o‘zgarishlar (suv omborining hajmi 1943 yildagi loyihsada 9,2 million kubometr deb ko‘rsatilgan bo‘lsa, yangi loyihsada suv ombor hajmi 17 million kubometr) bilan tasdiqlash uchun tavsiya qilingan. O‘zgarishlar kiritilgandan so‘ng, texnik loyiha 1954 yil 8 sentabrda O‘zbekiston SSR Suv xo‘jaligi vaziri tomonidan tasdiqlangan[4]. Dastlab, 1954 yildan Qamashi suv omborining qurilishi, viloyatning turli qurilish tashkilotlarining



yordami bilan boshlangan bo‘lsa-da, keyinchalik ish “Чимкурганстрой” (Chimqo‘rg‘onqurilish) boshqarmasi tomonidan davom ettirilgan[5].

Qamashi suv ombori tuman markazidagi temir yo‘l stansiyasidan 5-6 kilometr uzoqlikda joylashgan tabiiy botiq Sho‘rchisoyda qurilgan bo‘lib, uning umumiy jamg‘arma suv miqdori 17,6 million kubometrni, yuza qismi esa 1,8 million kvadrat metrni tashkil etgan[6]. Suv ombori Yakkabog‘ daryosidan suv oluvchi Qorabog‘ kanali[7] orqali yilning aprel-iyul oylarida to‘ldiriladi[8]. Qamashi suv ombori to‘g‘onining uzunligi 900 metr, dastlabki balandligi 10 metr bo‘lgan va uning o‘rtacha chuqurligi 6 metr, maydoni suv bilan to‘lgan vaqtida 390 gektarni tashkil etgan[9]. 1957 yilda suv ombori 8,5 million kubometr suv to‘plagan, 1958 yilda suv hajmi 14 million kubometrni tashkil etgan[10].

Qamashi tumani hududida 1957 yildan boshlab yuborilgan[12]. Hukumat 1956 yilda Qashqadaryo o‘zanida Chimqo‘rg‘on suv omborining qurilishi to‘g‘risida qaror qabul qilgan[13]. Qurilish ishlari “Sredazgiprovodxlopka” loyihasi bo‘yicha boshlangan bo‘lib, bu inshootning loyiha mualliflari A.V. Petrov va G.I. Prozorov[14], qurilishi A. Y. Shcherbakov boshchiligidagi qurilish-montaj boshqarmasi quruvchilari zimmasiga yuklatilgan[15]. Dastlab, Chimqo‘rg‘on suv omborini qurish orqali hukumat viloyatda 2,5 ming gektardan ortiq maydonni sug‘orishni rejalashtirgan[16]. 1960 yilda Chimqo‘rg‘on suv ombori birinchi navbatishga tushirilgan hamda 1963 yilda suv saqlash hajmi 500 million kubometr bo‘lgan Chimqo‘rg‘on suv ombori qurib bitkazilgan[17].

Chimqo‘rg‘on suv ombori ishga tushirilgan yilda unga tutash maydonlardan 200 gektarga yaqin maydon o‘zlashtirilib qishloq xo‘jaligi hisobiga kiritilgan, Qarshi cho‘lida 140 gektar yer o‘zlashtirilib chigit qadalgan[18]. Chimqo‘rg‘on suv omboriga Eski Anhor kanalining yangi o‘zanidan Zarafshon daryosining suvi ham kelib qo‘silgan [19]. Bu esa suv omborida suv hajmining oshishiga sabab bo‘lgan. Chimqo‘rg‘on suv ombori Qashqadaryo vohasining o‘rta, ayniqsa, Qarshi cho‘lidagi xo‘jaliklar paxtachiligining rivojlanishiga hissa qo‘silgan.

Bundan tashqari, Qamashi tumanida kichik miqdorda sel suvlarini saqlovchi suv omchorlari: Qorabog‘ selxonasi (suv sig‘imi 4 million kubometr), Langar selxonasi (suv sig‘imi 9 million kubometr). Mazkur selxonalarining qurilishi 1974 yilda





tugallangan bo‘lib, tumanda kanallar qurilishi ham olib borilgan. Masalan, Qamashi tumanidagi Niyozli va Chim kanallari[20]. Nomlari qayd etilgan suv inshootlari xalq xo‘jaligida, ayniqsa, Qamashi tumanidagi qishloq xo‘jaligi ekinlarini vegetatsiya davrida suv bilan ta’minlashda ahamiyatli bo‘lgan.

Qamashi suv omborining dambasi (to‘g‘on) 1962 yilda qayta rekonstruksiya qilinib, 3 metrga ko‘tarilgan[21]. 18 million kubometrga yaqin suv sig‘imiga ega bo‘lgan Qamashi suv omborining ishga tushirilishi [22], tuman hududidagi yerkarni sug‘orish imkoniyatini oshirgan. Shuningdek, mazkur suv omborining ishga tushirilishi Qamashi tumanidagi eng yirik Chimqo‘rg‘on suv omborining suvidan Qarshi cho‘li hududidagi ekin maydonlarini sug‘orishda ahmiyatli bo‘lgan. Chunki, Qamashi suv omborining suvi tumandagi 5 ming gektar ekin maydonlarini suv bilan ta’minlagan[23] bo‘lib, Chimqo‘rg‘on suv omboridagi suv zaxirasining ma’lum bir qismini Qamashi tumanidagi ekin maydonlariga emas, balki Qarshi cho‘liga yo‘naltirilishiga imkon bergen.

Masalan, Qamashi suv ombori o‘rnida 1937 yildan to 1955 yilga qadar cho‘ponlar – Shomurodov Rahim va Jalilov Salim (Qamashi tumanidagi Qo‘tonboy qishlog‘idan) tumandagi “Oxunboboyev” nomli kolxozning chorva mollarini boqishgan[24]. Kommunistlar o‘zlarining tor doiradagi manfaatlarini ko‘zlab, mahalliy aholining asrlar davomida shakllangan xo‘jalik hayoti, madaniyati, ekologiyasi, iqtisodiyoti va o‘ziga xos turmush tarzini ilmiy jihatdan chuqur tahlil etmagan, e’tiborga olmagan. To‘g‘ri, Qamashi tumanidagi suv inshootlarining qurilishi tuman qishloq xo‘jaligida ma’lum bir o‘sishga sabab bo‘lgan bo‘lishi mumkin. Ammo, mahalliy aholining hayoti tubdan yaxshilangan deb bo‘lmaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. G‘ulomov H. Havzalar va baliqlar. – Toshkent. Fan, 1981. – B. 8.
2. O‘zMA, 2783-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 1109-yig‘ma jild, 119-varaq.
3. O‘zMA, 2783-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 1109-yig‘ma jild, 119-varaq.
4. O‘zMA, 2783-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 1109-yig‘ma jild, 119-varaq.
5. O‘zMA, 2783-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 1109-yig‘ma jild, 120-varaq.
6. O‘zMA, 2783-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 1109-yig‘ma jild, 119-varaq.





7. O‘zMA, 2783-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 1109-yig‘ma jild, 118-varaq.
8. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 10 tom. – Toshkent. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2005.-B. 592.
9. G‘ulomov H. Havzalar va baliqlar. – Toshkent. Fan, 1981. – B. 9.
10. O‘zMA, 2783-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 1109-yig‘ma jild, 123-varaq.
11. Mironov. Y., Azizov. A. Lenin dekreti bilan // “O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi” jurnali. – № 5. May, 1968. – B. 2-6.
12. Siddiqov. Sh. Chimqo‘rg‘on chashmasi // “O‘zbekiston kolxozsovxoziy ishlab chiqarishi” jurnali. – № 8. Avgust, 1963. – B. 34-37.
13. Irrigatsiya Uzbekistana. Tom I. – Tashkent. Fan, 1975. – S. 206.
14. Toshev X. Qashqadaryoda irrigatsiya ishlari. – Toshkent. O‘zbekiston, 1975. – B. 14.
- 15 Ma’lumotnama // “Qashqadaryo haqiqati” gazetasi. – №11. 16 yanvar, 1955. – B. 1.
16. Siddiqov. Sh. Chimqo‘rg‘on chashmasi // “O‘zbekiston kolxozsovxoziy ishlab chiqarishi” jurnali. – № 8. Avgust, 1963. – B. 34-37.
17. Siddiqov. Sh. Kurash boshlandi // “O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi” jurnali. – № 6. Iyun, 1966. – B. 38-39.
18. Toshev X. Qashqadaryoda irrigatsiya ishlari. – Toshkent. O‘zbekiston, 1975. – B. 13.
19. Qoriyev M. O‘zbekiston suv omborlari. – Toshkent. O‘zbekiston, 1969. – B. 76.
20. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 10 tom. – Toshkent. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2005.-B. 592.
21. Irrigatsiya Uzbekistana. Tom I. – Tashkent. Fan, 1975. – S. 206.
22. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 10 tom. – Toshkent. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2005.-B. 592.
23. Dala yozuvlari, 2023 yil. Qamashi tumani Qo‘tonboy qishlog‘i. Ma’lumot beruvchi: Shermatov N. (85 yoshda).

